



## Spiritual and educational reforms in the field of public education (on the example of the Namangan region)

Lutfillo MAMASAIDOV<sup>1</sup>

Namangan State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received December 2021

Received in revised form

15 December 2022

Accepted 20 January 2022

Available online

15 Fabray 2022

**Keywords:**

school,  
secondary education,  
spirituality,  
reform,  
children's sports,  
education and upbringing,  
etiquette.

### ABSTRACT

This article is aimed at increasing the educational potential of students of secondary schools in the Namangan region from the first years of independence until 2005, organizing meaningful leisure and educating students in the spirit of patriotism and reforms carried out by the state in the field of spiritual education and sports, changes in the material and technical base of schools, the work done to develop children's sports in schools.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss1/S-pp19-25>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Xalq ta'limi sohasida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar (Namangan viloyati misolida)

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

maktab,  
o'rta ta'lim,  
ma'naviy-ma'rifiy,  
islohot,  
bolalar sporti,  
ta'lim va tarbiya,  
odobnoma.

Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillaridan to 2005-yilgacha bo'lgan davrda Namangan viloyati xalq ta'lim tizimida mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy hamda sport sohasidagi islohotlar, maktablarning moddiy-texnik bazasidagi o'zgarishlar, maktablarda bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yoritilgan.

<sup>1</sup> History teacher at Namangan State University. Namangan, Uzbekistan.

## Духовно – просветительские реформы в сфере народного образования (на примере Наманганской области)

### АННОТАЦИЯ

#### **Ключевые слова:**

школа,  
среднее образование,  
духовность,  
реформа,  
детский спорт,  
образование и воспитание,  
этика-эстетика.

В данной статье рассматриваются вопросы повышения познавательного потенциала учащихся средних общеобразовательных школ Наманганской области с первых лет независимости до 2005 года в системе народного образования, содержательной организации досуга и воспитания учащихся в духе патриотизма, освещены проводимые государством реформы в духовно-просветительской и спортивной сферах, изменения в материально-технической базе школ, работа по развитию детского спорта.

#### **1. Dolzarbligi:**

O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasini rivojlantirish, yoshlarimizni ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy istiqlol g'oyasini fuqarolarimiz ongida shakllantirish, milliy o'zlikni va urf-odatlarimiz hamda an'analarimizni yuksaltirish va ularni yanada takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib, yurtimizda ingliz, nemis, fransuz, rus, arab, xitoy, koreys tillarini o'qitishga ixtisoslashtirilgan Isoqxon Ibrat maktabi, "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilishi hamda respublikamizda Xalq ta'lim sohasini yanada rivojlantirish va malakali mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan yangi ko'rinishdagi matematika, fizika, kimyo, biologiya va axborot texnologiyalari hamda xorijiy tillar ilg'or ta'lim metodologiyalari asosida chuqur o'qitiladigan Prezident maktablarining tashkil etilishi ham yurtimizning ta'lim sohasidagi rivojlanishiga yaqqol misoldir.

#### **2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

Maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid bo'lgan tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik tahlil usullaridan foydalanilgan. Namangan viloyati xalq ta'limi sohasiga oid ilmiy adabiyotlar deyarli chop etilmagan. Lekin o'z tadqiqotlarida Namangan viloyati xalq ta'limi sohasiga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga Y. Qosimov, Yu. Bozorov, Z. Haydarov, A. Isoqboev, V. Rajapov, B. Kamolov, R. Dadaboev, D. Nasriddinova, M. Abdullaeva va O'. Asqarova, U. Mansurov va I. Alimov kabilarning asarlarini kiritish mumkin. Amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar natijasida shu fikrga guvoh bo'lish mumkinki, tarixchi olimlar tomonidan Namangan viloyati xalq ta'limi tizimiga oid ma'lumotlar atroflicha yoritilmagan va muayyan davrga oid bo'lgan. Biz mazkur maqolani tayyorlash jarayonida Namangan viloyati xalq ta'limi tizimiga oid ko'plab arxiv hujjatlari va mustaqillik davri manbalarini tadqiq etdik va maktablarda ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni davriylikka asoslangan holda yoritishga erishdik.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish zaminini mustahkamlash, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga katta e'tibor qaratildi.

Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari ma'naviy dunyosini boyitish va o'quvchilarni komil inson ruhida tarbiyalash maqsadida ko'plab amaliy tadbirlar tashkil etilgan. Umuman olganda, o'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini yaxshilashning muhim omillaridan biri ularning ma'naviy va ma'rifiy jarayonlarini rivojlantirishdir. Shu asnoda o'quv jarayonlari bilan o'zaro aloqadorlikda o'quvchilarga jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, yoshlar o'rtasida sodir bo'layotgan ko'ngilsiz hodisalarga qarshi milliy an'analar va qadriyatlarni o'zida namoyon etuvchi turli davra suhbatlari, uchrashuvlar, seminar va ko'ngilochar tadbirlar tashkil etilgan.

Bunday tadbirlardan biri 1993-yilda o'tkazilgan "Viloyatning eng yaxshi maktabi" ko'rik-tanlovi hisoblanib, tanlov 1992-yilning 1-oktabridan 1993-yilning 1-yanvarigacha hudud bosqichi va shu yilning yanvar oyidan 25-mart kunigacha viloyat bosqichi bo'lib o'tgan. Tanlovda maktablarning moddiy-texnik bazasi, o'quv va uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanganligi, o'quv xonalarining zamonaviy talablarga javob berishi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni egallashga oid sharoitlarning yaratilganligi, milliy hunarmadchilik elementlarida ta'lim va tarbiyani qo'llash, maktab va Respublika hayotiga oid yangiliklar, o'quvchilarning viloyat va Respublika fan olimpiadalaridagi ko'rsatkichlariga e'tibor beriladi.

Tanlovning 1993-yildagi bosqichida Kosonsoy tumani 28-maktabi birinchi, Uchqo'rg'on tumani 3-maktabi ikkinchi, Chust tumani 19-maktabi uchinchi o'rinni egallagan. Tanlov barcha maktablarning moddiy-texnik holatini atroflicha o'rganishda ulardagi kamchiliklar va muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini yaxshilashda dastlabki vaqtlarda ota-onalarning ishtiroki oshirilib, barcha maktablarda "Ota-ona" qo'mitalari [1. B. 127] tashkil etilgan. Ushbu qo'mita a'zolari o'quvchilar o'rtasidagi ta'lim-tarbiyani yaxshilashda maktab ma'muriyatiga yaqindan yordam bergan.

Ota-onalarning maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga yaqindan yordam berishlari, o'quvchilarda sinfdan tashqari ishlarning samarali tashkil etilishiga va ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga katta turtki bo'lgan. Namangan shahri misolida o'rganilganda, 1992–1993-o'quv yilida darslarga sababsiz qatnashmayotgan 534 o'quvchining 364 tasi maktabga qaytarilgan hamda 1991–1992-yillar holatiga nisbatan 1993-yilda jinoyatchilik 50 % ga qisqargan [2. B. 146]. Bundan tashqari, shu yilda o'quvchilar Respublika fan olimpiadasida yuqori natijalarni egallab, uchta o'quvchi 1-o'rinni, beshta o'quvchi 2-o'rinni, oltita o'quvchi esa 3-o'rinni egallagan [3. B.58]. 1995-yilda esa to'qqizta o'quvchi 1-o'rin, oltita o'quvchi 2-o'rinni, beshta o'quvchi 3-o'rinni egallab, [4. B. 127] viloyatda ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlarning samarasini ko'rsatib bergan.

Buning natijasida, viloyatning ta'lim sohasiga munosib hissa qo'shgan o'quvchi va o'qituvchilarga ta'til vaqtlarida O'zbekistonning Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Tojikistonning Xo'jand va Qirg'izistonning Bishkek shaharlariga sayohatlar uyushtirilgan [5. B. 4].

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan umumta'lim maktablarida maktabdan tashqari ta'lim jarayonlari ham samarali tashkil etilib, maktablarda 1994-yilda 4641 ta turli (Yosh tabiatshunoslar, Yosh texniklar, Yosh o'lkashunoslar va boshqa) to'garaklar tashkil etilib, unda 1161 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatgan [6. B. 7].

Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 18-martdagi "O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish choralari to'g'risida"gi Qaroriga asosan viloyat Xalq ta'limi tizimida 2 ta futbol maktabi, 15 ta futbol bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. 1993-yilda futbol bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar soni 17 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 1995-yilga kelib, bu ko'rsatkich 22 mingtaga yetgan [7. B. 254]. Ushbu raqamlarni tahlil qilsak, 1995-yilda viloyatning barcha umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar soni 383 ming 734 nafarni tashkil etgan, ya'ni futbol bilan shug'ullanadigan o'quvchilar atiga 5.7 % ni tashkil etgan.

Bunga sabab, 1995-yilda viloyatdagi maktablar, hunar-texnika bilim yurtlari va bolalar va o'smirlar sport maktablarining 76 % ida futbol maydonlari bo'lmagan. Namangan tumanida 42 ta maktabning 3 tasida, To'raqo'rg'onda 61 ta maktabning 5 tasida, Yangiqo'rg'onda 59 maktabning 10 tasida futbol maydonlari bo'lgan [8. B. 256]. Ammo viloyatimizda futbol maydonlariga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lishiga qaramay, III Respublika spartakiadasining futbol musobaqasida viloyatimiz sportchilari Toshkent va Buxoro viloyatlarini ortda qoldirib, faxrli birinchi o'rinni egallagan [9. B. 255].

1999–2000-o'quv yillarida viloyatimiz umumta'lim maktablarida sport sohasiga katta e'tibor qaratilib, o'quvchilar Respublika spartakiadalarida sportning 13 turi bo'yicha bellashuvlarda qatnasha boshladilar. Bundan tashqari, viloyat o'smirlar 18-sport maktabi o'quvchisi Olga Son shaxmat bo'yicha, Chust tumani 6-sport maktabi o'quvchisi Sevara Qodirova stol tennisi bo'yicha jahon chempioni bo'ldilar. Namangan tumanining 37-maktabi mazkur o'quv yilida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinadigan "Yil maktabi" ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egalladi [10. B. 141]. Bu natijalar viloyat Xalq ta'lim boshqarmasi faoliyatining samarali olib borilishi va o'quvchilarning darslardan tashqari bo'sh vaqtlarining mazmunli tashkil etilganligining dalilidir. Sababi, joriy o'quv yilida 325 ming 141 xildagi fan va sinfdan tashqari to'garaklar tashkil etilgan bo'lsa, ushbu to'garaklarga 493 ming 244 nafar o'quvchilar qamrab olingan [11. B. 23].

Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan o'quvchi yoshlarning huquqiy bilim salohiyatini yaxshilash maqsadida 2002-yilda Norin tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan "Siz qonunni bilasizmi?" ko'rik-tanlovining tuman bosqichi tashkil etilgan. Ushbu ko'rik-tanlovga tuman prokurorining katta yordamchisi A. Madiev hakamlar hay'atiga rahbarlik qildi. Ko'rik-tanlov yakuniga ko'ra, Norin tumanidagi 29-maktabning "Adolat" jamoasi birinchi o'rinni, 1-maktabning "Yangi avlod" jamoasi ikkinchi o'rinni, 34-maktabning "Humo" jamoasi esa uchinchi o'rinni egallagan [12. B. 1].

2002–2003-o'quv yilida viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish psixologik-pedagogik tashxis markazi" tomonidan tashkil etilgan "Eng namunali maktab hamshirasi" ko'rik-tanlovi ham alohida ahamiyatga egadir. Bu ko'rik-tanlovdan ko'zlangan maqsad umumta'lim maktablarida tibbiy xizmatning o'rni, kelajagimiz bo'lgan yoshlarning sog'lig'ini saqlash, ularni jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdir. Ko'rik-tanlov so'ngida Uchqo'rg'on tumani 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi birinchi o'rinni, Namangan shahridagi 31-maktabi ikkinchi o'rinni, To'raqo'rg'on tumanidagi 48-maxsus maktab internati uchinchi o'rinni egalladi [13. B. 1].

Joriy o'quv yilida o'quvchilar o'rtasidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish va barchani yo'l harakati qoidalariga amal qilishga undaydigan ikki bosqichdan iborat "Yashil chiroq-2003" musobaqasi tashkil etilgan. Musobaqaning tuman boshqichida g'olib bo'lgan Mingbuloq, Namagan tumani va Uchqo'rg'on jamoalari ikkinchi bosqichda bellashdilar. Musobaqa so'ngida Namagan tumani birinchi, Uchqo'rg'on tumani ikkinchi, Mingbuloq uchinchi o'rinlarni egalladilar [14. B. 26].

Shuningdek, an'anaga aylanib qolgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligining "Yil maktabi" ko'rik-talovining 2003-yil viloyat bosqichida 14 ta maktab qatnashdi. Ko'rik-tanlovning barcha shartlari bo'yicha yakuniy xulosaga ko'ra, Pop tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internati jamoasi g'olib deb topilib, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi [15. B. 2].

Mazkur o'quv yilida Xalq ta'lim boshqarmasi tomonidan ko'plab yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ammo ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Ya'ni bolalar va o'smirlar sportini rivojlantirish bo'yicha viloyatdagi 262 ta maktabda sport bilan shug'ullanish uchun sport zallarining yo'qligi yoki viloyatdagi 33 ta bolalar va o'smirlar sport maktabining 28 tasi sport sohasi bo'yicha o'z moddiy-texnik bazasiga ega emasligi yomon holat hisoblangan [16. B. 47]. Respublikada esa 2003–2004-o'quv yilida 4692 ta maktabning sport zallari va 5132 ta maktabning tadbirlar o'tkazish uchun mo'ljallangan zallarining yo'qligi, umumta'lim maktablarining 69 %i ikki smenali maktablar bo'lib, ayrim uch smenada ta'lim olayotgan o'quvchilar bilan maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya va to'garak mashg'ulotlarining olib borilmaganligi o'quvchilar bilimlarining pasayishiga olib kelgan [17. B. 2].

Viloyatda ta'lim sohasida o'ziga xos kamchiliklar mavjud bo'lsa-da, sport sohasiga bo'lgan qiziqish oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Viloyatda sport bilan shug'ullanuvchi 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar 1995-yilda 7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2003-yilga kelib, (182180 nafar) 35 % ga yetgan hamda 2003-yilda bo'lib o'tgan "Umid nihollari" Respublika sport musobaqasida viloyatimiz yoshlari 2 ta oltin, 20 ta kumush, 58 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, umumjamo'a hisobida to'rtinchi o'rinni egallagan [18. B. 47].

Bu rivojlanishlar 2004-yilga kelib, viloyatdagi 506 ming 411 nafar o'quvchining 490 ming 375 nafari, ya'ni 96.8 %i muntazam jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullangan [19. B. 8]. Bundan tashqari, joriy o'quv yilida o'quvchilarning ta'til vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida viloyatdagi 9 ta maktab qoshida 780 nafar, shahar tashqarisidagi 12 ta oromgohlarda uch mavsumda 8200 nafar bolalar dam olishlari rejalashtirilgan [20. B. 20].

Ma'naviy va ma'rifiy ishlar qatorida viloyat xalq ta'limi boshqarmasining qarori asosida "Jinoyatchilik, huquqbuzarlik va giyohvandlikning oldini olish bo'yicha viloyat prokuraturasi bilan hamkorlikda Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori asosida 2005-yilgacha mo'ljallangan tadbirlar dasturiga binoan 2002-yilda viloyatdagi ko'plab maktablarda uchrashuvlar tashkil etildi. Masalan, To'raqo'rg'on tumanida "Jinoyatchilik, huquqbuzarlik, giyohvandlik va uning zararlari" mavzusida, Chust tumanida "Ichkilikbozlikning zararli oqibatlari va uning oldini olish" mavzusida, Uychi tumanida "Giyohvandlik – jinoyatchilikka yetaklovchi yo'l" mavzusida yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi [21. B. 2].

Jinoyatchilikka qarshi tadbirlar davomida 2001-yilda jinoyatchilik holatlari yuqori bo'lgan Chust, Chortoq, Yangiqo'rg'on, Davlatobod, Kosonsoy, Norin tumanlari va Namagan shahar xalq ta'lim bo'limlari mudirlariga tegishli choralar ko'rildi [22. B. 3].

Mazkur harakatlarni o'zaro tahlil qilganimizda viloyatda jinoyatchilik 2001-yilga nisbatan 2002-yilda 25 tadan 14 taga, huquqbuzarlik esa 442 tadan 309 taga kamaydi [23. Б. 2]. Ammo jinoyatchilik holati 2002-yilda 14 tani tashkil etgan bo'lsa, 2003-yilda 29 taga oshgan, huquqbuzarlik holati 2003-yilda 309 tadan 114 taga kamaygan. Eng achinarlisi, o'quvchilar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holati 2002-yilda 12 tani tashkil etgan bo'lsa, 2003-yilda 13 taga yetgan [24. Б. 3], 2004-yilda o'z joniga qasd qilish holati Respublika bo'yicha voyaga yetmaganlarning 63,6 %i maktab o'quvchilari hisoblangan [25. Б. 1].

2004–2005-o'quv yili O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish o'quv yili" sifatida e'tirof etildi. Shu munosabat bilan "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirish hamkorlik dasturi" ishlab chiqilib, unda maktabdan tashqari ta'lim tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u berildi.

Maktabdan tashqari ta'lim qo'shimcha ta'lim dasturlari asosida o'quvchilarning mavjud ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtlari va dam olishlarini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, u bolalar (o'smirlar) ijodiyoti saroylari, uylari, klublari, markazlari, sport maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar hamda sog'lomlashtirish muassasalarida tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, viloyatda Xalq ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida qisqa muddat ichida ulkan islohotlar amalga oshirilib, o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini yuksaltirish ishlari munosib tarzda tashkil etildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Наманган вилояти давлат архиви. 645-фонд. 1-рўйхат. 43-иш. 127-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 43, P. 127.).
2. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 43-иш. 146-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 43, P.146.).
3. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 44-иш. 58-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 44, P.58.).
4. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат.106-иш. 127-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 106, P.127.).
5. Sayohatga taklif etadi // Murabbiy. – 1993. – №3. – В. 4. (Offers travel // Coach. – 1993. – №3. – В. 4.).
6. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 70-иш. 7-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 70, P.7.)
7. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 133-иш. 254-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 133, P. 254.).
8. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 133-иш. 256-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 133, P. 256.).
9. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 133-иш. 255-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 133, P.255.).
10. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 217-иш. 141-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 217, P.141.).
11. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 289-иш. 23-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 289, P.23.).

12. Qobulova R. Huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratiladi // Murabbiy. – 2002. – №4. – В. 1. (Kobulova R. Directed to the prevention of wrongdoings // Coach. – 2002. – №4. – В. 1.).
13. Mamadalieva V. G'oliblar aniqlandi // Murabbiy. – 2002. – №4. – В. 1. (Mamadalieva V. Winners were announced // Coach. – 2002. – №4. – В. 1.).
14. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 334-иш. 26-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 334, P. 26.).
15. Popliklar respublika bosqichida qatnashadi // Murabbiy. – 2003. – №1. – В. 2. (The people who live in Pop will take part in the republican stage // Coach. – 2003. – №1. – В. 2.).
16. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 336-иш. 47-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 336, P.47.).
17. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 357-иш. 2-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 357, P. 2.)
18. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 336-иш. 47-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 336, P.47.)
19. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 257-иш. 8-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 257, P. 8.)
20. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 370-иш. 20-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 370, P. 20.).
21. Sodiqov A. Voyaga etmaganlar tarbiyasi bosh vazifa // Murabbiy. – 2002. –№10. – В. 2. (Sodikov A. The main task of juvenile education // Coach. – 2002 – №10. – В. 2.)
22. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 294-иш. 3-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 294, P. 3.).
23. Sodiqov A. Voyaga etmaganlar tarbiyasi bosh vazifa... – В. 2. (Sodikov A. The main task of juvenile education // Coach. – 2002).
24. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 335-иш. 3-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 335, P. 3.).
25. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 357-иш. 1-варақ. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 357, P. 1.).